Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2024-yil 24-oktabr, payshanba,
123 (24.000)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz


Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari sayloviga

2 KUN

qoldi

HAR BIR OVOZ MUHIM! SAYLOVDA ISHTIROK ETING!

So‘nggi sessiyada deputatlar rahbar hisobotini qabul qilmadi



23-oktabr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining bir yuz to‘rtinchi sessiyasi o‘tkazildi. Oltinchi chaqiriqdagi mazkur so‘nggi sessiya davlat madhiyasi bilan boshlandi.

Deputatlar dastlab viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi boshlig‘i Ahad O‘roqovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining viloyatdagi ijrosi yuzasidan hisobotini eshitdilar.

Qayd etilishicha, qaror ijrosi yuzasidan viloyatda muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Samarqand shahridagi chorrahalarni to‘liq raqamli boshqaruv tizimiga o‘tkazish maqsadida 150 ta svetofor obyektlarini raqamli boshqaruv tizimiga o‘tkazish ishlari olib borilmoqda. Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarida joriy yil 1-oktabr holatda 3009 dona yo‘l belgilari, 18 dona svetofor o‘rnatildi. Tumanlar va shaharlardagi aholi gavjum bo‘lgan joylarda keyingi uch yilda piyodalar tomonidan boshqariladigan 33 ta svetofor qo‘yildi. Aholi punktlarida piyodalar va velosipedda harakatlanish uchun 33 kilometr yo‘laklar qurildi. Yuk avtomobillarining vazn parametrlarini nazorat qiluvchi 2 dona ko‘chma tarozi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Joriy yilda viloyat hududidagi 365 kilometr uzunlikdagi umumfoydalanuv avtomobil yo‘llari ta’mirlandi. Shuningdek, 18 ta ko‘prikda ta’mirlash ishlari olib borilmoqda.

Hisobotda viloyat hududidan o‘tgan M37 va M39 avtomobil yo‘llarida amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari haqida ham ma’lumot berildi.

Ammo deputatlarning mazkur chora-tadbirlar avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirishda qanchalik samara berayotgani haqidagi va boshqa savollariga boshqarma boshlig‘i javob bera olmadi. Shuningdek, viloyatdagi yo‘llarning holati va buning oqibatida kelib chiqayotgan yo‘l-transport hodisalari tahlil qilinmayotgani, zarur chora-tadbirlar belgilanmayotgani tanqid qilindi.

Shu sababli deputatlar hisobotni zarur ma’lumotlar kiritilgan holda qayta tayyorlash kerakligini qayd etib, rad etdi. Ushbu masala Kengashning keyingi sessiyalarida qayta ko‘rib chiqilishi belgilandi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbarining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i Temur Mahmudov hisobot berdi.

– O‘tgan sakkiz oy davomida Bandlik dasturi doirasida “yangiish.mehnat.uz” platformasiga sohalar bo‘yicha mas’ullar tomonidan 297,7 ming nafar aholi bandligi ta’minlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar kiritildi, - dedi T.Mahmudov. – Bu ma’lumotlar soliq qo‘mitasi bazasi bilan solishtirilganda, 43,7 ming nafar fuqaro haqidagi ma’lumotlar soliq hisobotlarida aks etmaganligi aniqlandi. Dastur ijrosi bo‘yicha belgilangan sakkiz oylik reja viloyat miqyosida 218,9 ming o‘rnida amalda 254 mingtaga bajarilgan bo‘lsa-da, sohalar bo‘yicha ayrim tumanlarda belgilangan reja bajarilmadi. Masalan, investitsiya dasturlari doirasida ishga tushirilgan loyihalar hisobiga yaratilgan yangi ish o‘rinlarida aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan reja Oqdaryo tumanida 44 foizga (328 ta o‘rnida 145 ta), Payariqda 87 foizga (152 ta o‘rnida 132 ta) bajarilgan.

Mazkur masala muhokamasi chog‘ida deputatlar hisobotlarni to‘g‘ri yuritish, norasmiy band bo‘lganlar bilan ishlash, migratsiyadagi fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish va ularning manfaatlarini himoya qilish yuzasidan taklif va tavsiyalarini bildirdi.


Sessiyada jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishiga ruxsat berish to‘g‘risidagi, “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining mobil va simli ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarini rivojlantirish” loyihasi doirasida telekommunikatsiya infratuzilmasini Samarqand viloyatida yanada rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyiha konsepsiyasini kelishish to‘g‘risidagi, viloyat mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi masalalarni ham ko‘rib chiqib, qarorlar qabul qildilar.

Sessiya yakunida Kengash raisi, viloyat hokimi E.Turdimov deputatlarga o‘tgan besh yildagi samarali faoliyati uchun minnatdorlik bildirdi.

Besh yil davomida viloyat Kengashining 104 ta sessiyasi o‘tkazildi. Ushbu sessiyalarda 815 ta masala ko‘rildi. Jumladan, 259 ta hisobot, 65 ta axborot eshitildi. 59 ta hokim qarori tasdiqlandi.

O‘tgan davrda xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari tomonidan ijro organlariga 1490 dan ortiq deputatlik so‘rovi yuborildi. Viloyat Kengashi deputatlariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan 2328 ta murojaatlar kelib tushgan va 1577 tasi hal etilgan.

Kengash raisi 27 oktyabr kuni o‘tkaziladigan saylovda xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzodi ko‘rsatilgan shaxslarga omad tiladi. Faol va tashabbuskor deputatlarning bir guruhiga viloyat hokimligining tashakkurnomasi topshirildi.



SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — ORZU VATANIM

Gazetamizning ushbu sonida siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydonida tashviqot materiallari chop etilmoqda.

(2-3-4-sahifalar)





Samarqand Qozog‘istonning Turkiston viloyati bilan hamkorlik qiladi

Samarqandda o‘tkazilgan O‘zbekiston – Qozog‘iston to‘rtinchi hududlararo hamkorlik forumida shunday kelishuvga erishildi.

Forum ishida ikki davlat hukumati a’zolari, hududlar rahbarlari va tadbirkorlar ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov hamda Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri O.Bektenov davlatlarimiz rahbarlarining samimiy munosabatlari va oqilona tashqi siyosatlari tufayli keyingi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari jadal rivojlanib, barcha sohalarda ijobiy o‘sish kuzatilayotganini qayd etdilar.

So‘nggi 7 yil ichida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida o‘zaro savdo aylanmasi deyarli 2,5 barobar o‘sib, o‘tgan yili 4,4 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda mamlakatimizda Qozog‘iston kapitali ishtirokida 1100 ga yaqin, Qozog‘istonda esa O‘zbekiston kapitali ishtirokida 3600 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda.

Mavjud zaxiralardan samarali foydalangan holda yaqin yillarda o‘zaro savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning shu yil avgust oyida Qozog‘istonga amalga oshirgan davlat tashriflari doirasida umumiy qiymati 7 milliard dollarlik shartnoma va bitimlar imzolangani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bu hujjatlarning ijrosini ta’minlashda hukumatlar va mintaqalar rahbarlari o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi zarurligi ta’kidlandi.

Tomonlar O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi uzoq muddatli sheriklikni kengaytirishda hududlararo aloqalar haqiqiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilayotganini e’tirof etdi. Jumladan, Samarqanddagi “Azia Metall” kompaniyasi esa Taraz shahrida po‘lat mahsulotini ishlab chiqarish zavodini qurmoqda.

Bosh vazirlar O‘zbekiston va Qozog‘istonning barcha viloyatlari hamda shaharlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga har tomonlama yordam berishga tayyorliklarini tasdiqladilar.

Forumda hududlararo aloqalarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish yuzasidan muhim taklif va tashabbuslar bildirildi. Davlat rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Bir qator vazirliklar va mintaqalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, birgalikda loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hujjatlar imzolandi.

Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtiriladi

Joriy yilning 18-oktabr kuni “Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi va kuchga kirdi.

Hujjat bilan o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan 80 yoshga to‘lgan keksalarga qarab turilgan vaqt ish stajiga qo‘shib hisoblanishi uchun davolash muassasasining xulosasi talab etilmasligi, shuningdek, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalarga, yolg‘iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo‘lgan shaxslarga shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqi berilishi belgilangan. Endi umrbod ta’minlash sharti bilan uyni (kvartirani) boshqa shaxsga berishga doir bitimlar va umrbod renta shartnomasi to‘g‘risidagi, shuningdek, vasiylikdagi shaxsning mol-mulkini taqsimlashga doir bitimlar hamda uning taqdirini hal qilishga qaratilgan boshqa bitimlar haqidagi ma’lumotlar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga taqdim etilishi nazarda tutilgan.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar, yolg‘iz yashovchi keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar yo‘qolgan yoxud yaroqsiz holga kelgan ID-kartasini yoki biometrik pasportini almashtirishda davlat bojini to‘lashdan ozod qilinishini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritildi. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarni vaqtincha ro‘yxatga olishda ham davlat boji undirilmaydi.

Bundan tashqari, yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar davlat tomonidan ikkilamchi bozordan olingan uy-joyni ularning nomiga rasmiylashtirish uchun notarial harakatlarni amalga oshirishda davlat bojini to‘lashdan ozod qilinishi belgilandi.

Shu bilan birga, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalarga, yolg‘iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo‘lgan shaxslarga homiylik qilish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritildi.

Hujjatda ayrim qonunlarga Ijtimoiy himoya milliy agentligining zimmasiga dafn etish uchun nafaqani berish vazifasini yuklatishga, uning xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlarini belgilashga, shuningdek, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga va ma’muriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini to‘lashdan ozod etishga taalluqli o‘zgartirishlar kiritilishi belgilangan.

Asqar BAROTOV.

25-oktabr – O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlari kuni



Har bir qo‘ng‘iroq muhim

Oxiri yo‘q qo‘ng‘iroqlar har biri kimningdir taqdirini hal qilishi mumkin. Dispetcherlarning diqqati shay, ular go‘shakning narigi tomonidagi vaziyatni aniq bilishi kerak. Shunga qarab, murojaat tegishli bo‘limlarga yo‘naltiriladi, harakat boshlanadi.

Viloyat ichki ishlar boshqarmasi tashkiliy boshqarma bo‘linmalari “102” dispetcherlik xizmatida har kun shunday o‘tadi. 24/7 tartibida ishlovchi xizmat ichki ishlar idorasining viloyatdagi bo‘linmalari bilan tezkor aloqa almashish tizimi bilan ta’minlangan. Unda faqat maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislar ishlaydi.

— Bir kunda 1800 dan ortiq qo‘ng‘iroqni qabul qilamiz, - deydi xizmat boshlig‘i, mayor Oybek Tilyavov. – Elektron murojaat telefondagi muloqot bilan bir vaqtda to‘ldirilib, mas’ul bo‘limlarga yuboriladi. Xodimlar uning mazmuniga qarab, tezkorlik zarur bo‘lsa, 10 daqiqa oralig‘ida voqea joyiga yetib borishi mumkin. Murojaat “102” tizimi orqali tegishli bo‘limga yuborilgandan keyin ham u bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni kuzatib borish mumkin. Aytaylik, mas’ul xodim ma’lum vaqt murojaat bo‘yicha chora ko‘rmasa, dispetcher u bilan telefon orqali bog‘lanib, vaziyatga aniqlik kiritadi. Hech bir murojaat e’tiborsiz qoldirilmaydi.

(Davomi 4-sahifada) »»

BIZ BIRGALIKDA KATTA KUCHMIZ!

O‘zLiDeP tomonidan saylov arafasida tashkil etilayotgan targ‘ibot tadbirlarida bu da’vat qayta-qayta yangramoqda. Elektorat vakillari mazkur shior zamirida taraqqiyotni tezlashtiruvchi omillarni to‘liq qamrab olgan ma’no-mazmun mujassamligini tobora teranroq anglashyapti.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari sayloviga juda oz muddat qoldi. Partiyalarning tashviqotlari ham shu kunlarda qizg‘in pallaga kirdi.

Xo‘sh, **1 million 600 mingdan** ziyod a’zosi bo‘lgan O‘zLiDePning saylovoldi targ‘ibot tadbirlari qanday kechmoqda? Elektorat vakillarining 46 foizini ayollar, 48 foizini yoshlar tashkil qiladigan liberal-demokratlar saylovchilar ishonchini qozonish uchun qanday tashabbuslarni ilgari surmoqda va qanday yangi usullardan foydalanmoqda?

Quyida ana shu savollarga javob bo‘ladigan sa’y-harakatlarga xolisona nazar tashlaymiz.

O‘z g‘oya va dasturlarini aholi orasida keng yoyish maqsadida O‘zLiDeP bu yilgi saylovga ham har galgidek yangicha uslublarda yondashmoqda. Tanlangan strategiya doirasida odamlar orasiga yanada chuqurroq kirib borish, uyma-uy yurib, millionlab fuqarolar bilan muloqot qilish, har bir saylovchiga partiya g‘oyalarini yetkazish oson ish emas.

Shu kungacha faollar va volontyorlar guruhi rejaga muvofiq **ikki milliondan ortiq xonadonga** kirib-chiqishdi. Shuningdek, velosiped va maxsus ovoz kuchaytirgichlar (ruper) yordamida partiyaning asosiy maqsad va g‘oyalari aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilinmoqda. Bundan tashqari, O‘zLiDeP partiyalararo debatlarda ham dadil qatnashmoqda. Saylovchilar bilan uchrashuvlar, nomzodlarning tashkilot va idoralardagi muloqotlari ham jonli tarzda kechmoqda.

Umuman olganda, O‘zLiDeP bu galgi saylov kampaniyasida keng aholi qatlamlarini jalb etgan holda ommaviy tadbirlarni hamda asosiy elektorat qatlami vakillari bilan uchrashuvlarni o‘tkazishga alohida e’tibor qaratdi.

OCHIQ OSMON OSTIDAGI OCHIQ MULOQOTLAR

Farg‘ona shahridagi Islom Karimov nomidagi teatr-konsert saroyi maydonida **“Erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonni birgalikda quramiz!”** shiori ostida uyushtirilgan ommaviy targ‘ibot tadbiri xususida ijtimoiy tarmoqda ko‘plab ijobiy fikrlar bildirildi.

Boisi shundaki, yomg‘irli ob-havo bo‘lishiga qaramay, ikki mingdan ziyod saylovchilar — tadbirkoru fermerlar, ta’lim va tibbiyot sohasi xodimlari, madaniyat va san’at tizimi vakillari partiya takliflarini diqqat bilan eshitishdi.

Shuningdek, Nukus shahridagi “Do‘stlik bog‘i”da tashkil etilgan targ‘ibot tadbiri ham saylovchilar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot shaklida, yuqori kayfiyatda tashkil etildi.

Ochiq osmon ostidagi ommaviy tadbirlarda ta’kidlanganidek, partiya yalpi ichki mahsulot hajmi 2030-yilga borib, **160 milliard dollarga, aholi jon boshiga** to‘g‘ri keladigan daromadni esa **4 ming dollarga yetkazish,** tadbirkorlar sonini **3 million nafardan oshirish** uchun barcha zarur choralarni ko‘radi. Bundan tashqari, kasb-hunarga o‘qitish ko‘lamini har yili ikki baravar oshirib, besh yilda kamida **1 million fuqaroga kasb o‘rgatish,** barcha tuman va shaharlarda monomarkazlarni tashkil qilish, maktab bitiruvchilariga davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizim joriy etish kabi masalalar ham partiyaning diqqat markazida bo‘ladi.

O‘zLiDeP mamlakatimizdagi barcha sohalarning birdek rivojlanishidan manfaatdordir. Bu kabi ezgu maqsadlar yo‘lida barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etiladi.

SUN’IY INTELLEKT VA NANOTEXNOLOGIYALAR

Virtual makon hayotimizdan mustahkam o‘rin olgani bugun hech kimga sir emas. Endilikda katta-kichik ham raqamli texnologiyalar va mobil ilovalardan foydalanishni biladi. Elektron qulayliklar ko‘lami tobora kengayib borayotgani ham rost.

O‘zLiDeP mutasaddilarining Samarqand viloyatida joylashgan “Urgut iqtisodiy zonasi”da yirik kompaniya rahbarlari, investorlar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda ayni mavzuda so‘z yuritilgani elektoratning diqqatini o‘ziga jalb qildi.

Raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan korxonalarning eksport faoliyatini jadallashtirish, **“Chip sanoati”, sun’iy intellekt, nanotexnologiyalar** kabi ilg‘or tarmoqlarni rivojlantirish partiyaning kelgusi besh yillikda eng ustuvor vazifasiga aylanadi. Shuningdek, sanoatda tannarxni kamaytirish, maxsus sanoat zonalarini xorijiy kompaniyalarga autsorsing asosida boshqaruvga berish, avtomobil ishlab chiqarish hajmini yiliga **1 million donaga yetkazish choralari** ko‘riladi. O‘zbekistonni mintaqaviy **“to‘qimachilik xabi”ga** aylantirish uchun sohadagi tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish uchun **“maktab — oliygoh — IT kompaniyasi”dan iborat yaxlit “IT ta’lim”** va xizmatlar zanjiri yaratiladi.

Toshkent viloyatidagi **“Astrum” IT akademiyasida** IT mutaxassislar, marketing sohasi vakillari, yoshlar bilan o‘tkazilgan O‘zLiDePning saylovoldi tashviqoti Urgutdagi qiziqarli suhbatning tadrijiy davomi bo‘ldi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Saylovoldi uchrashuvda partiya yoshlar bandligi va ishbilarmonligi, xususan, ishsiz yoshlarni **zamonaviy kasblarga o‘qitish** tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, korxonalar buyurtmasi asosida kasbga tayyorlash amaliyotini joriy qilish tarafdori ekani qayd etildi.

Har bir viloyatda kamida 100 gektar maydonda **“Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazi”ning** tashkil etilishi va mazkur markazlar yoshlar uchun chinakam “loyihalar fabrikasi”ga aylanishi ma’lum qilindi.

AHOLINI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHNING “MAHALLABAY” DASTURLARI

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi “Parvoz Humo Ravnaq Trans” va Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi “Ko‘k saroy” korxonalarida tashkil etilgan saylovoldi targ‘iboti tadbirlarida ham partiya elektoratining asosiy qatlamini tashkil etuvchi tadbirkorlar, ishbilarmonlar, kichik va o‘rta biznes hamda agrar soha xodimlari faol ishtirok etdi.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilishning **“mahallabay” dasturlari**ni ishlab chiqish partiya oldida turgan eng muhim maqsadlardan biri ekani alohida e’tirof etildi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida imtiyozli kredit hajmlarini har yili 30 foizga oshirib borish, ijtimoiy tadbirkorlikni yanada rag‘batlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ish bilan ta’minlab kelayotgan tadbirkorlarga mol-mulk va yer solig‘idan imtiyozlar berish ham O‘zLiDePning saylovoldi takliflari sirasiga kiradi.

Ichki mehnat migratsiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratish, bandlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash manbalarini kengaytirish, jumladan, xususiy bandlik agentliklari tizimini rivojlantirish masalalari elektorat manfaatlarini himoyalashda zarur qadam bo‘ladi.

MA’NAVIY-MA’RIFIY SOHALAR HAM DOIMIY E’TIBORIMIZDA BO‘LADI

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi “Kitoblar olami” markazida yozuvchi va shoirlar, kitob nashri va bosma sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar, kitobxon yoshlar vakillari bilan partiya nomzodlarining uchrashuvi ham samimiy ruhda kechdi.

Uchrashuvda O‘zLiDeP tadbirkor va ishbilarmonlar manfaatlarini himoya qiladigan eng yirik siyosiy kuch sifatida xususiy sektordagi **nashriyotlar faoliyatini yanada rivojlantirish**ga alohida e’tibor qaratishi aytib o‘tildi. Jumladan, biznes yuritishni yanada soddalashtirish, **1000 ga yaqin byurokratik talablarni bekor qilish, litsenziyalar sonini ikki baravar kamaytirish**, litsenziya bekor bo‘ladigan 60 ta faoliyat uchun xabardor qilish tizimini joriy etish partiyaning keyingi besh yillikdagi ustuvor vazifalaridir. Shuningdek, **soliq ma’murchiligi tizimini soddalashtirish**, barcha tadbirkorlar uchun soliq to‘lash borasida adolatli va teng sharoitlar yaratish kabi vazifalar ham matbaa sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning manfaatlariga xizmat qiladi.

* * *

Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumani “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonasi va “Uzavtomotors” aksiyadorlik jamiyatida bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda partiyaning iqtisodiy yo‘nalishdagi maqsad va vazifalari, Andijon davlat tibbiyot institutida esa shifokorlar va yosh mutaxassislar bilan tibbiyot sohasini rivojlantirishga oid taklif va tashabbuslari haqida so‘z yuritildi.

Umuman olganda, uchrashuvlarda partiya Saylovoldi dasturidagi ustuvor yo‘nalishlar, maqsad va g‘oyalar xalqchil, oddiy, sodda tilda yetkazilyapti. Saylovchilar partiya g‘oyalari va tashabbuslariga o‘zining iliq munosabatlarini bildirib, saylovda partiya va uning nomzodlarini qo‘llab-quvvatlashlarini ta’kidlashmoqda.

O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti yo‘lidagi bu muhim pallada, Siz, aziz saylovchilar qabul qiladigan qarorlar kelajagimizni belgilaydi. O‘zLiDeP o‘zining adolatli va farovon jamiyatni qurish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va har bir fuqaroning manfaatlarini himoya qilishga bo‘lgan sodiqligini amalda isbotlagan.

Birgalikda kuchmiz! Bizni qo‘llab-quvvatlang! Islohotlarning bardavomligi uchun O‘zLiDeP va uning nomzodlariga ovoz bering!

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi matbuot xizmati.

O‘ZBEKISTON LIBERAL-DEMOKRATIK PARTIYASI VA NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

“BIZ BIRMIZ, O‘ZBEKISTONLIKMIZ!”

Odimlayotgan har bir kun bizni 27-oktabr – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatligiga bo‘ladigan saylovlarga yaqinlashtirmoqda. Bu jarayonda “Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot” shioriga amal qilayotgan “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi ham parlament va mahalliy kengashlarda eng ko‘p o‘rinlarni egallash uchun kurashmoqda.

Ta’kidlash lozimki, partiya tomonidan tashkil qilinayotgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlarida barcha nomzodlar faol ishtirok etib, partiya va o‘zlarining saylovoldi dasturlarini keng targ‘ib qilmoqda. Ayniqsa, bunday tadbirlarida nafaqat elektorat, balki partiya g‘oya va maqsadlariga xayrixoh bo‘lgan keng jamoatchilik vakillari ishtirok etmoqda.

Jumladan, shu kungacha partiyaning 38 mingga yaqin targ‘ibot tadbirlari tashkil etilib, ularda qariyb 1 million 500 mingga yaqin saylovchi ishtirok etdi.

“MILLIY TIKLANISH” NIMA UCHUN “QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT” G‘OYASINI ILGARI SURMOQDA?

Jizzax shahridagi Mustaqillik maydonida o‘tkazilgan ommaviy targ‘ibot tadbirida partiya tomonidan “Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot” g‘oyasi bejiz ilgari surilmayotgani qayd etildi.

Bugungi kunda butun dunyoda taraqqiyotga erishish va farovon jamiyat barpo etish masalasi aksariyat davlatlarning kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. Biroq shuni tan olish kerakki, iqtisodiy farovonlik o‘z-o‘zidan jamiyat baxti va barqarorligini ta’minlay olmaydi. Insonlarning hayotida ma’naviy mezonlar va qadriyatlarning ahamiyati ham katta o‘rin tutadi. Ayniqsa, ko‘p asrlik an’analar va millatimizning ma’naviy merosi xalqimizning kelajagi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzod, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori Gulchehra Rixsiyeva dasturda bugun zamonamizning dolzarb masalasiga aylangan tarbiya va ta’lim sohasini rivojlantirishga, bu borada mavjud bo‘lgan muammo va kamchiliklarni hal qilish bo‘yicha ilgari surilgan taklif va tashabbuslar haqida fikr bildirdi.

Ular orasida eng muhimi “Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash Davlat dasturi”ni qabul qilish tashabbusidir. Chunki so‘nggi yillarda ushbu dasturning kerakligini har kuni his qilyapmiz. Bugun farzandlarimiz umuman yangicha davrda yashayapti va pedagoglarimiz ham kelajagimiz egalariga mos bo‘lishi lozim. Shu bois yangi avlod pedagoglarini tayyorlash va o‘qituvchilik kasbining jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishga birinchi darajali vazifa sifatida qarash zarur.

Gulchehra RIXSIYEVA:

- Shundan kelib chiqib, barchangizdan ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatlagan holda, farzandlarimizning kelajagini o‘ylagan barcha yurtdoshlarimizni 27-oktabrda bo‘ladigan saylovlarda “Milliy tiklanish” va uning nomzodlariga ovoz berishga chaqiraman.

Quyi palataga ko‘rsatilgan yana bir nomzod, Jizzax viloyati hokimi o‘rinbosari Nazira Muxtorovaning chiqishi ham saylovchilar tomonidan iliq kutib olindi.

Partiya “Ma’rifatli ona – qudratli millat” tamoyiliga asosan xotin-qizlarga oid siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ayollar kelajagimiz bunyodkorlari bo‘lgan bolalarni dunyoga keltiruvchi va ularning tarbiyachilari bo‘lishi barobarida davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning boy bilim, malaka va kuchini safarbar etishga qodir ulkan salohiyatga ega jamiyatimizning faol a’zolari ekanligidan kelib chiqib, dasturda muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ulardan eng muhim, shubhasiz, farzand ko‘rgan ayollarga bola uch yoshga to‘lguniga qadar haq to‘lanadigan “Onalik ta’tili” berish tizimini joriy qilish taklifidir.

Nazira MUXTOROVA:

- Agar siz farzandim mehrli, tarbiyali, kelajakda yurtimizga sadoqatli farzand bo‘lib voyaga yetishini istasangiz, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va uning nomzodlariga ovoz bering!

PARTIYAMIZNING HAYOTIY TASHABBUSLARI – TARAQQIYOT ODIMLARIMIZGA MUSTAHKAM POYDEVOR

“Biz birmiz, o‘zbekistonlikmiz!” shiori ostida Buxoro shahrida navbatdagi ommaviy tadbir uchun katta tayyorgarlik ko‘rildi. Ma’lumki, bir necha ming yillik tarixga ega azim shahar ahli hayratlar ichida yashaydi, 200 dan ortiq qadimiy obidalar, osori-atiqalari bilan butun dunyoni lol qoldirib kelayotgan voha ahli partiya tashabbus va g‘oyalarni olqishlar bilan kutib olishdi. Uch mingga yaqin saylovchilar ishtirok etgan tadbirda nomzodlar saylovoldi dasturining mazmun-mohiyatini tushuntirishdi va barchani saylovlarda faol ishtirok etishga, “Milliy tiklanish” va uning nomzodlariga ovoz berishga chaqirishdi.

Ommaviy tadbirda partiya Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirov so‘zga chiqib, bugun saylovchilarga quruq va’dalar emas, aniq va lo‘nda taklif va tashabbuslar, ertamizga xizmat qiladigan g‘oyalar kerakligini, yuzaki bahslar, tortishuvlar emas, chin yurakdan, Vatan, millat manfaati yo‘lida aytiladigan oddiy va sodda gaplar kerakligini ta’kidladi.

Feruza MUHAMMEDJANOVA,
Markaziy kengash raisi o‘rinbosari:

- Bir donishmand agar o‘g‘lingni o‘qitsang, bir kishini o‘qitgan bo‘lasan, qizingni o‘qitsang, butun jamiyatni o‘qitgan bo‘lasan, degan ekan. Ammo ayrim talaba onalar bolasiga qarovchi yo‘qligi sabab, o‘qishini davom ettira olmayapti. Shundan kelib chiqib, partiyamiz dasturida talaba onalarning farzandlari uchun oliy ta’lim muassasalarida maxsus bolalar xonalari yoki bog‘chalar tashkil etish taklifi ilgari surilmoqda.

Jahongir SHIRINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:

- Partiya tomonidan davlat boshqaruvi hamda qonunchilik va sud-huquq tizimi bo‘yicha ham bir qator tashabbuslar ilgari surilgan. Ayniqsa, nodavlat notijorat tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi rolini oshirish zarur. Toki ular faqat bu illatga qarshi targ‘ibot bilan cheklanib qolmay, korrupsion holatlarni kerak bo‘lsa, davlat organlaridan ham oldinroq tahlil qilish va fosh etishga qodir bo‘lsinlar.

HUNARMANDLAR TADBIRKOR EMAS, QADRIYATLAR TASHUVCHISIDIR

Shahrihon tumanidagi hunarmandlar markazida elektorat vakillari bilan uchrashuv har qachongidan ham sermazmun o‘tdi. Xalq amaliy san’ati namunalarini yaratayotgan usta hunarmandlar, xalq og‘zaki ijodini davom ettirib kelayotgan san’at vakillari bilan uchrashuv qizg‘in savol-javoblarga boy bo‘ldi. Qadriyatlarimizni boricha asrashga, avloddan avlodga o‘tishiga xizmat qilayotgan usta-hunarmandlar partiyaning saylovoldi dasturida ularning faoliyati bilan bog‘liq tashabbus ham ilgari surilgan. Jumladan, soha vakillari dasturdagi “Hunarmandchilik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish taklifini qo‘llab-quvvatladilar.–

Partiya yosh avlodni hunarmandchilikka va xalq amaliy san’atiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularning bu faoliyat bilan shug‘ullanishlarini rahbatlantirish juda zarur deb hisoblaydi. Sababi, partiya hunarmandlarga tadbirkor sifatida emas, qadriyatlarni tashuvchi sifatida qaraydi. Shundan kelib chiqib, ular uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashni asosiy vazifa deb biladi.

Tolib AHMEDOV,
hunarmand:

- Shaxsan men 30 yildan beri yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘ullanaman. Shu hunar bilan oila tebrataman va bu bizga ota meros. Bu sohani davom ettirayotgan uchinchi avlod vakiliman. Haqiqatdan ham hunarmandlar qo‘llab-quvvatlansa, ularning faoliyati ommalashishi uchun imkoniyat yaratilsa, yoshlarimizning qiziqishlari ham yanada oshardi. Soha rivojiga imkoniyat yaratish orqali ham iqtisodiyot, ham turizmni rivojlantiramiz, ham qadriyatlarimizni davom ettiramiz. Men partiyaning faoliyatimiz bilan bog‘liq takliflarini qo‘llab-quvvatlayman.

Maqsadimiz birgalikda Inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan – Yangi O‘zbekistonni barpo etishdir. Bugun barchamiz xalqni rozi qilish, kelajakda emas, odamlarga bugun qulay sharoitlar yaratish maqsadiga aylangan kunlarda yashayapmiz. Bosh maqsadimiz “Qudratli davlatga tayangan, qonunlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg‘un, inson qadri baland, farovon jamiyat qurish”dir.

Shubhasiz, bu galgi saylovlar har doimgidanda kuchli raqobat muhitida o‘tmoqda. Bu yo‘lda salmoqli natijalarga erishib, parlament va mahalliy kengashlarda eng ko‘p o‘rinlarni egallash – partiyaning eng asosiy maqsadidir.

Albatta, bunda Siz saylovchilarning ovozi biz uchun muhimdir. 27-oktabrda o‘tadigan saylovlarda “Milliy tiklanish” partiyasi va uning nomzodlariga ovoz bering!

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi matbuot xizmati.

“MILLIY TIKLANISH" PARTIYASI VA NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

BIZNING NOMZODLARIMIZ MAMLAKATIMIZ BARCHA HUDUDLARIDA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISHNI MAQSAD QILGAN

O‘zbekiston Ekologik partiyasi saylovoldi dasturida yurtimizdagi har bir hudud hamda har bir fuqaro uchun zarur va ahamiyatli bo‘lgan muhim masalalar o‘rin olgan. Mamlakatimizning har bir hududi “yashil” iqtisodiyot talablarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish uchun katta salohiyatga, keng imkoniyatlarga ega. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yerlarni va ichimlik suv manbalarini asrash, mavjud ekologik vaziyatni anglagan holda muammolarga yechim topish, har bir xonadonga toza ichimlik suv kirib borishini ta’minlash borasida aynan O‘zbekiston Ekologik partiyasi saylovoldi dasturida bir qator tashabbus va takliflar ilgari surilayotganini barcha saylovchilar katta qiziqish va e’tibor bilan qarshi olmoqda.

Bo‘lib o‘tayotgan saylovoldi uchrashuvlar qizg‘in savol-javoblarga boy tarzda, barcha saylovchilarning faolligida o‘tayotgani aholining O‘zbekiston Ekologik partiyasi saylovoldi dasturi va partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlarga befarq emasligidan darak beradi.

SAMARQAND VILOYATI. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida partiya saylovoldi dasturidagi vazifalarni keng ommaga yetkazish va targ‘ib qilish yuzasidan **saylovoldi ommaviy tadbiri** o‘tkazildi. Partiyadan Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga ko‘rsatilgan nomzodlar, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchi va talabalari, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tashkilotlar vakillari, ekofaollar, volontyorlar hamda mahalliy aholidan iborat **ming nafarga yaqin saylovchilar** mazkur ommaviy tadbirda ishtirok etdi.

“Tabiat uchun birlashaylik!” “Sog‘lom kelajak uchun!” “Xalqimiz yashillikni tanlaydi!” kabi shiorlar bilan keng jamoatchilik Ekologik partiyani qo‘llab-quvvatlashini, partiyaning dasturiy maqsadlari hayotiy zarurat va bugungi kun uchun naqadar muhimligini qizg‘in namoyon etishdi.

Ommaviy tadbirda partiya raisi Abdushukur Hamzayev barchani joriy yilning 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan saylovlarda faol ishtirok etishga chaqirdi. Samarqand shahri yer yuzining sayqali hisoblanishi, uning xalqaro maydonda ham tamaddun beshigi sifatida qayd etilishi, viloyatning o‘ziga xos tabiati, tuproq-iqlim sharoitiga ega ekani ta’kidlab o‘tildi.

Tadbirda so‘zga chiqqan el ardog‘idagi insonlar, taniqli shaxslar tabiatning bugungi ovozi ushbu dasturiy vazifalarni amalga oshirishga da’vat etayotganini alohida qayd etdi. Bo‘lajak saylovda yashil va musaffo, sog‘lom hayotni istaganlarning barchasini O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonida bo‘lishga da’vat etishdi. Saylovda O‘zbekiston Ekologik partiyasini va uning nomzodlarini qo‘llab-quvvatlashga chaqirishdi.

Shavkat HASANOV,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori:

– Ekopartiya bugun nafaqat sizu bizning ovozimiz, balki tabiatning ovozini baralla aytmoqda. Ana shu ovozga quloq tutmasak, hayotimizning barcha taraqqiyot pillapoyalarini tabiatning oltin muvozanatiga tenglamasak, kelajak avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Shuning uchun ham partiyamiz xalqimizning, farzandlarimizning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqlarini ro‘yobga chiqarishni bosh maqsad sifatida qo‘ymoqda.

Mana, siz yer sotib olasiz. Unda daraxtlar bormi-yo‘qmi, daraxtlar bo‘lsa unga kim egalik qiladi? Yerni sotib olgan mulkdorning bu daraxtlarni kesishga haqi bormi-yo‘qmi?.. Xullas, savollar bisyor, javoblar esa mavhum. Bu mavhum savollarga partiyamiz aniq javobni taklif etmoqda! Shaharlarda bino va ko‘p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish mexanizmini qonunda aniq belgilash tashabbusi ilgari surilmoqda.

Shuningdek, partiyamiz **2030-yilga qadar yirik shaharlarda yo‘lovchilarning velosipedda harakatlanish ulushini 20 foizga yetkazish**ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Misol uchun, mana, Registon maydoni atrofidagi maydonda skuter, mini eletrobuslar harakatlanadi. Shovqinsiz, atrofga zarar-siz, hamma uchun qulay. Shunday muhitga butun shahrimiz bo‘ylab erishsak, qanday yaxshi?! O‘zbekiston Ekologik partiyasining maqsadi ham ana shunga erishishdir.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI. «Tabiat uchun birlashaylik!» shiori ostida Ellikqal’a tumanida o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvida **Orolbo‘yi mintaqasi aholisining qulay atrof-muhit sharoitlarini yanada yaxshilash** borasidagi dolzarb masalalar xususida to‘xtalib o‘tildi.

Uchrashuvda so‘zga chiqqan Ekopartiya rahbari Abdushukur Hamzayevning partiya saylovoldi dasturidagi Orolbo‘yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, **aholiga qulay yashash sharoitini yaratish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish**ga qaratilgan taklif va tashabbuslar atroflicha tushuntirildi.

Mamlakatning **iqlim «yuki» monitoringi**ni va **iqlim hisobini yuritib borish** mexanizmlarini joriy etish, iqlim o‘zgarishlariga chidamli yangi nav va zotlarni yaratishni rag‘batlantirish, ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq **ekotizimdagi yo‘qotishlar va zararlarni qoplash uchun maxsus jamg‘arma** tashkil etish kabi tashabbuslar alohida qayd etildi.

Sapargul UTEMUROTOVA,
1-Qoraqalpog‘iston Respublikasi saylov okrugidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:

– O‘zbekiston Ekologik partiyasi ilgari surayotgan takliflarning barchasi muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Ana shu maqsadlardan kelib chiqib, o‘zimning saylovoldi dasturimga kiritgan masalalarga yurtdoshlarimning befarq emasligi va qo‘llab-quvvatlayotganidan xursandman.

Saylovchilar oldida qayta-qayta ta’kidlayotganim – **ekologiya ta’limi** taklifi shunisi bilan ahamiyatliki, biz shu orqali katta mablag‘lar sarflab, izdan chiqqan ekotizimni oldingi holatiga qaytarish kabi mashaqqatli va ba’zan imkonsiz faoliyatlarga chek qo‘yishga erisha olamiz.

ANDIJON VILOYATI. Ushbu hudud bugungi kunda nafaqat fan va ta’lim, san’at sohasi uchun chinakam namoyandalar yetishtirib berayotgani, balki mamlakat sanoati, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik sohalari rivojiga ulkan hissa qo‘shayotgan fidokor farzandlari bilan ham tanilgan.

Andijonlik saylovchilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ham bular haqida atroflicha so‘z yuritildi. O‘zbekiston Ekologik partiyasi saylovoldi dasturida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mavjud muammolarni bartaraf etish, mazkur yo‘nalishda qanday katta maqsadlar ko‘zda tutilayotgani atroflicha tahlil qilindi. Partiyamizdan ko‘rsatilgan nomzodlar dasturining asosiy yo‘nalishlari andijonlik saylovchilar tomonidan alohida e’tirof etildi.

Navro‘zbek YUSUPOV,
9-Andijon viloyati saylov okrugidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:

– Saylovoldi dasturimizda **2030-yilga qadar yirik shaharlarda yo‘lovchilarning velosipedda harakatlanish ulushini 20 foizga yetkazish**, atrof-muhitga zarar yetkazish hisobiga olingan **energiya ulushini kamida 25 foizga qisqartirish**, sanoatda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali **energiya sarfini 50 foizga qisqartirish**, 2030-yilgacha energiya balansida ekologik toza va qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini **ikki karra oshirish** kabi qo‘yilgan hayotiy maqsadlar ayniqsa, andijonlik yurtdoshlarimizning katta qiziqish va e’tiborini qozonmoqda. Chunki aholi zich joylashgan hudud uchun bu masalalar juda katta ahamiyatga ega.

SIRDARYO VILOYATI. O‘zbekiston Ekologik partiyasi fitosanitariya talablariga javob bermaydigan, **salomatlik uchun jiddiy xavf tug‘diruvchi mahsulotlar importini cheklash** zarur, deb hisoblaydi. Partiyaning ushbu tashabbusi Sirdaryo viloyati saylovchilari bilan bo‘lgan uchrashuvda alohida e’tirof etildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga Sirdaryo viloyat okrugidan ko‘rsatilgan nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ekologik talablarga to‘liq moslashtirish, **sintetik go‘sht kabi oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish va sotishga qarshi kurashish** haqida atroflicha ma’lumot berildi. Sanoat sohasi, innovatsion dehqonchilik tobora rivojlanib borayotgan Sirdaryo viloyatida ekologik muammolarga qarshi kurashish, **“yashil” iqtisodiyot** talablari asosida barqaror rivojlanishga erishish xususida atroflicha so‘z yuritildi.

Dilshod BURANOV,
37-Sirdaryo viloyati saylov okrugidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod:

– Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiruvchilarni **iqlim o‘zgarishi oqibatlari ta’siridan himoya qilish** hamda fors-major holatlarda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish masalasi partiya e’tiboridagi asosiy vazifalardandir. Biz shu yo‘l bilan ekologik toza va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ta’minotiga muhofaza yordami ko‘rsatishni taklif etmoqdamiz.

BUXORO VILOYATI. Romitan tumanida O‘zbekiston Ekologik partiyasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatligiga ko‘rsatilgan nomzodlar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda nomzodlar partiya va o‘zlarining saylovoldi dasturidagi eng muhim jihatlar bilan yig‘ilganlarni tanishtirdi.

Yurtimizning qurg‘oqchil hududlarida istiqomat qilayotgan aholi orasida ekologik muammolar tufayli **yuzaga kelayotgan kasalliklarni aniqlash**, doimiy monitoring qilib borish va ularning oldini olish choralarini ko‘rish, mamlakatning iqlim «yuki» monitoringini va iqlim hisobini yuritib borish mexanizmlarini joriy etish, **iqlim o‘zgarishiga chidamli yangi nav va zotlar yaratishni rag‘batlantirish** kabi tashabbuslar saylovchilarda katta qiziqish uyg‘otdi. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq **ekotizimlardagi yo‘qotishlar va zararlarni qoplash uchun maxsus jamg‘arma tashkil etish**ga oid tashabbus ham Buxoro viloyatining iqlim sharoitini yaxshilash uchun katta yordam bo‘lishi qayd etildi.

NAVOIY VILOYATI. “Tabiat uchun birlashaylik!” shiori ostida o‘tkazilgan uchrashuvda partiya faollari, ekologlar, qishloq xo‘jaligi va o‘rmonchilik sohasi vakillari, atrof-muhitga befarq bo‘lmagan yoshlardan iborat **300 ga yaqin saylovchilar** ishtirok etdi.

Uchrashuvda partiyaning atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” energetikani rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish va bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan kelgusi besh yillikdagi ustuvor vazifalari haqida so‘z yuritildi.

TOSHKENT SHAHRI. O‘zbekiston Ekologik partiyasining **shaharlarda bino va ko‘p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish** mexanizmlarini qonunda aniq belgilashga oid taklifini poytaxtlik saylovchilar juda qizg‘in qarshi olishmoqda. Toshkent shahrida o‘tkazilgan saylovchilar bilan uchrashuvda shu va dasturimizdagi eng muhim tashabbuslar haqida so‘z yuritildi.

– Ochig‘ini aytish kerak, bugun ko‘pchilik tartibsiz qurilishlardan charchadi, – dedi tadbirda ishtirok etgan O‘zbekiston Ekologik partiyasi rahbari Abdushukur Hamzayev. – Shu tufayli shaharlarimizda yashil maydonlar va daraxtlar tobora kamayib ketayotgani poytaxt jamoatchiligining haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotganini hammamiz ko‘rib turibmiz.

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo‘lib o‘tayotgan uchrashuvlarda ayni jihatlar yaqqol ko‘zga tashlandi. **«Tabiat uchun birlashaylik!»** shiori asosida o‘tkazilgan uchrashuvlarda partiyamiz nomzodlariga savol bilan yuzlangan saylovchilar jumboq bo‘lib kelayotgan so‘rovlarga batafsil, aniq va hayotiy misollar orqali javob olishdi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi bugun hayotiy zaruratga aylangan tashabbuslarni, mamlakatimizning barcha hududlarida barqaror rivojlanishga erishishdek ezgu maqsadlarni sizlarning e’tiboringizga havola etmoqda.

O‘zbekiston Ekologik partiyasiga va uning nomzodlariga ovoz bering!

O‘zbekiston Ekologik partiyasi markaziy kengashi matbuot xizmati.

O‘ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

G‘OYA VA TASHABBUSLARIMIZ FAOL QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA

Barchamiz yirik siyosiy jarayon – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylovlar ostonasida turibmiz. Yangi O‘zbekistonda ilk bor saylovlar yangicha, aralash tizimda bo‘lib o‘tadi.

Mamlakatimizda birinchi tashkil topgan, davlatchiligimiz tarixidagi barcha saylovlarda munosib qatnashib kelayotgan, 700 mingdan ortiq a’zoga ega Xalq demokratik partiyasi kampaniyaning ilk kunlaridan saylovchilar bilan faol muloqotga kirishdi.

Partiya Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga bir mandatli okruglar (majoritar tizim) bo‘yicha 75 nafar, partiyaviy ro‘yxat (proporsional tizim) bo‘yicha 100 nafar nomzodlarni ko‘rsatdi. Bunda asosiy e’tibor nomzodlarning sifat tarkibiga, xususan, tajribali, xalq orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, salohiyatli, bilimli, zamon bilan hamnafas nomzodlarni saralashga qaratildi.

Nomzodlarning 83 nafari (47,4 foiz) ayollardan iborat bo‘lib, barcha 175 nafar nomzod oliy ma’lumotga ega. Bundan tashqari, O‘zbekiston XDP Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) kengashlariga 5695 nafar nomzod ko‘rsatdi, ularning 2415 nafarini (42,4 foiz) xotin-qizlar tashkil etadi.

Xalq demokratik partiyasi o‘zining saylov strategiyasi asosida uyma-uy yurib, 1 milliondan ortiq xonadonga kirib chiqishni, har bir saylovchiga partiya g‘oyalarini yetkazishni, ularning taklif-mulohazalarini olishni maqsad qilgan. Bu borada 3500 ga yaqin yigit-qiz va faollardan iborat volontyorlar guruhining ko‘magi katta bo‘lmoqda. Ular boshlang‘ich partiya tashkilotlari bilan birgalikda barcha hududlarda partiya Saylovoldi dasturi hamda deputatlikka nomzodlar haqidagi bosma materiallarni saylovchilarga yetkazmoqda.

Partiya faollari hamda partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlar hududlarda saylovchilar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar, ochiq muloqotlar tashkil qilmoqda.

G‘OYA VA TASHABBUSLARIMIZ QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA

Samarqand shahridagi ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikada Xalq demokratik partiyasi rahbarlarining fuqarolar bilan saylovoldi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Unda Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi Ulug‘bek Inoyatov, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri Nuriddin Ismoilov hamda partiyaning boshqa rahbar va faollari ishtirok etdi.

So‘zga chiqqanlar partiyaning saylovoldi dasturi hamda deputatlikka nomzodlarning dasturidan o‘rin olgan taklif va tashabbuslar mazmunini saylovchilarga tushuntirib berishdi. Xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning talab va ehtiyojlari, qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash masalasi partiyaning maqsadi va uning elektorati manfaatlaridan kelib chiqib taklif etilayotganligi ta’kidlandi. Bu orqali partiya davlat aholi manfaatlarini to‘laqonli ta’minlash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi lozim, degan pozitsiyasida sodiq qolgani alohida qayd etildi.

— Ijtimoiy tenglik bo‘lgan joyda barqarorlik, rivojlanish bo‘ladi, - deydi Ulug‘bek Inoyatov. – Bugungi natijalarga erishish oson bo‘lgani yo‘q. 20 yil, 10 yil oldin qanday yashaganmiz, bugun qanday yashayapmiz, barcha o‘ziga shu savollarni berishi va hozirgi imkoniyatlarni qadrlashi kerak. Shu bilan birga, kelajagimiz uchun ham befarq bo‘lmasligimiz lozim. Yaqinlashib kelayotgan saylovlarda faol ishtirok etish, partiya va deputatlikka nomzodlar dasturlariga qiziqish bildirib, munosiblarga ovoz berish buning yorqin misoli. Agar siz kuchli ijtimoiy davlatda, har bir fuqaroning farovonligi ta’minlanadigan jamiyatda yashayman desangiz, partiyamiz va uning nomzodlariga ovoz bering!

Uchrashuvda ta’kidlanganidek, partiya milliy qonunchilikni Birlashgan millatlar tashkilotining nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha me’yoriy qoidalariga to‘liq muvofiqlashtirishga erishishni maqsad qilgan. Xususan, partiyaning saylovoldi dasturida nogironlar uchun obyektlar va xizmatlarning qulayligi milliy standartlarni ishlab chiqish hamda "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi Qonunning alohida qismi sifatida mustahkamlash, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning kasalliklari ro‘yxatini kengaytirish orqali doimiy parvarishga muhtoj bo‘lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish belgilangan. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslar harakatlanishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish, shu jumladan, temir yo‘l vokzallari, aeroport va shohbekatlarda ko‘zi ojizlar uchun elektron axborot eshitish moslamalarini, svetofor va maxsus yo‘laklarda nogiron shaxslarni ogohlantiruvchi ovozli elektron jihozlarni o‘rnatish nazarda tutilgan.

Partiyamiz fuqarolarning ijtimoiy huquqlarining adolatli va samarali amalga oshirilishini ta’minlashni bosh maqsadi deb biladi. Mazkur yo‘nalishda u parlamentdagi fraksiyasi orqali ijtimoiy ta’minot va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini yangi normalar bilan to‘ldirish orqali ijtimoiy kodeksni ishlab chiqish va qabul qilishni maqsad qilgan. Buning uchun birinchi navbatda, imtiyozga ega bo‘lgan fuqarolardan tashqari boshqa og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolar toifalarini va ularga ko‘rsatiladigan yordam turlarini qonunchilikda aniq belgilash, aholining zaif qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy tadbirkorlikni amalga oshirishning protsessual mexanizmlari va ijtimoiy xizmatlar shartnomasini tuzish tartibini ishlab chiqish, jamiyatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash va o‘z vaqtida hal qilishga qaratilgan ijtimoiy diagnostikani amalga oshirish tartibini ishlab chiqish zarur deb hisoblaydi. Biz har bir insonning birlamchi hayotiy ehtiyojlariga yetadigan eng kam iste’mol xarajatlarini qonun darajasida belgilash maqsadida "Eng kam iste’mol xarajatlarini belgilash tartibi to‘g‘risida"gi qonunni qabul qilish tarafdorimiz.

— Har bir a’zosi o‘z iqtidorini erkin namoyon qila oladigan kuchli jamiyat qurishimiz kerak, - deydi partiyadan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Nilufar Sobirova. – Buning uchun sifatli ta’limni ta’minlash kerak. Shu maqsadda boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar sonini 20 nafardan oshirmaslik, katta sinflarda esa 24 tagacha o‘quvchi o‘qitish tizimini yaratish taklifini ilgari suryapmiz. Son emas, sifatga e’tibor bersakgina natijaga erishamiz.

Partiya dasturida umumiy va kasbiy ta’limda aholining barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish uchun "Yagona ijtimoiy reyestr"da ro‘yxatga olingan oila farzandlarini davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga to‘lanadigan ota-onalar to‘lovidan ozod qilish, davlat umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida kuni uzaytirilgan guruhlar faoliyatini tashkil etish, bunda "Yagona ijtimoiy reyestr"da ro‘yxatga olingan oila farzandlari uchun yengilliklar berish, "Salomatlik maktabi" ijtimoiy loyihasini keng amalga oshirish tashabbusi bilan chiqish choralari belgilangan. Maktab o‘quvchilariga jamoat transportidan foydalanishi uchun tabaqalashgan tariflarni joriy etish, maktablarda ovqatlantirish tizimi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, sog‘liq uchun zararli oziq-ovqat mahsulotlari sotilishining oldini olish, sifatsiz mahsulot tarqatganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish vazifalari ham shular jumlasidan. Shuningdek, partiya oliy ta’lim uchun kontrakt-to‘lov miqdorini davlat tomonidan qat’iy belgilash va ularni uch yildan kam bo‘lmagan muddatda qaytadan ko‘rib chiqishni taqiqlash taklifi bilan chiqmoqda.

— Menga partiyaning tibbiy xizmatni takomillashtirish bilan bog‘liq takliflari ma’qul keldi, - deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filiali katta hamshirasi Dilshoda Qosimova. – Jumladan, yurtimizga kirib kelayotgan dori vositalari va ularning sotilish narxini kuchliroq nazorat qilish kerak, deb o‘ylayman. Partiya sohani yashirin tijoratdan xoli qilish bo‘yicha muhim vazifalarni oldiga qo‘ygan.

Partiyaning saylovoldi dasturida malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun "Davlat tibbiy sug‘urta to‘g‘risida"gi qonunni qabul qilish, viloyatlarning ko‘p tarmoqli tibbiyot va tibbiy diagnostika, bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari hamda tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarini zamonaviy tibbiyot texnikasi va texnologiyalari hamda tegishli mutaxassislar bilan ta’minlash bo‘yicha dastur qabul qilish vazifalari belgilangan. Bu jarayonda partiyamiz keksalarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirishga ham ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Tadbirda ishtirokchilar partiyaning saylovoldi dasturida ilgari surilgan taklif va vazifalar yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdi.

Bir so‘z bilan aytganda, partiyamiz va nomzodlarimiz saylovoldi targ‘ibot tadbirlarini respublikamizning barcha hududlarida ko‘tarinki ruhda o‘tkazmoqda.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasiga va nomzodlariga ovoz bering!

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi axborot xizmati.

XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI VA NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJINI TA’MINLASH – IJTIMOIY TARAQQIYOTNING MUHIM POYDYEVORI

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturida partiya oldida turgan ustuvor maqsad va vazifalardan biri sifatida iqtisodiy erkinlikni ta’minlash orqali davlat ishtirokini saqlab qolish, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti, shuningdek, adolatli va samarali soliq hamda budjet siyosatini amalga oshirishga qaratilgan bir qator muhim g‘oya va tashabbuslarni taklif etmoqda.

Partiya mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biri, deb biladi. Bunda asosiy e’tiborni daromadlarni adolatli taqsimlash orqali jamiyatda keskin tabaqalashuvning oldini olishga qaratadi.

MAQSADIMIZ – IQTISODIY FAOLIYAT NATIJASIDA YUZAGA KELGAN DAROMADNI ADOLATLI TAQSIMLASH

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi saylovoldi dasturining iqtisodiy yo‘nalishida fuqarolarimizning daromadidan to‘lanadigan soliqlarning shaffofligi va adolatli taqsimlanishini asosiy masala sifatida belgilagan.

Partiya ushbu maqsadni amalga oshirishda soliqlar va boshqa qayta taqsimlash vositalari orqali aholi daromadlari o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish, **“ko‘p daromad topgan ko‘p soliq to‘laydi”** tamoyiliga ko‘ra hamda adolatli, samarali soliq va budjet siyosatini amalga oshirish maqsadida soliqqa tortishning **progressiv stavkalar**ini hayotga joriy etish va shu orqali daromadlar tengsizligini kamaytirishga erishishni maqsad qilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, yuqori maosh olmaydigan fuqarolar bugunga nisbatan kamroq soliq to‘laydi, yuqori maosh oladigan xodimlarning to‘laydigan soliqlari esa oshadi, davlatga jismoniy shaxslarning daromad solig‘ining to‘lanishida ijtimoiy adolat yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi.

TADBIRKORLARGA MAJBURIYAT YUKLAYDIGAN BARCHA QOIDALAR FAQAT QONUNLAR ORQALI JORIY QILINISHI LOZIM

Bugungi kunda tadbirkorlarning kichik bir xatolarining ham ular faoliyatiga bevosita ta’sir qilayotganligi ayrim holatlarda ularda shaffof tizim orqali ishlashdan manfaatdor bo‘lmaslikni oshirmoqda. Natijada ayrim tadbirkorlar o‘zlaring iqtisodiy faoliyatini yashirin holatda olib borishga majbur bo‘lmoqda.

Hozirda huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etganlik uchun jarima realizatsiya amalga oshirilgan oxirgi hisobot choragida olingan sof tushumning 2 foizi, bir yil davomida takror sodir etilganda esa oxirgi hisobot choragida olingan sof tushumning 20 foizi miqdorida moliyaviy sanksiya belgilangan.

Qolaversa, hozirda tadbirkorlarga nisbatan soliqqa oid bitta huquqbuzarlik uchun ham moliyaviy sanksiya, ham ma’muriy jarima qo‘llanib kelinmoqda. Shu bois O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, soliq to‘lovchilar tomonidan tushumni yashirishning oldini olish va naqd pulsiz savdo-sotiqni ko‘paytirish maqsadida **ularga qo‘llanadigan moliyaviy sanksiyalar (jarimalar) miqdorini qat’iy belgilash, bunda jarimalar ularning tushumiga bog‘liqligini bartaraf etishni** taklif etmoqda.

IMTIYOZLAR SHAXSLARGA EMAS, ANIQ SOHALARGA BERILISHI TARAFDORIMIZ

Partiya dasturida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimini isloh qilish doirasida sog‘lom raqobat muhitini ta’minlash uchun individual soliq va bojxona imtiyozlari berish amaliyotini maksimal darajada cheklash, imtiyozlar va preferensiyalar berish, ularning iqtisodiy jihatdan asosliligi hamda samaradorligini baholash tizimini, shuningdek, ulardan foydalanishni monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu bois partiya bojxona va soliq imtiyozlarini takomillashtirish, **imtiyozlarni shaxslarga emas, aniq sohalarga berilishini ta’minlash** tarafdori.

KICHIK SANOAT ZONALARI HUDUDLAR RIVOJINI TEZLASHTIRADI

Partiyamiz saylovoldi dasturida mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish va hududlarni izchil rivojlantirishda kichik sanoat zonalari, sanoat klasterlarining muhimligini inobatga olib, **“Kichik sanoat zonalari to‘g‘risida”gi** qonunni qabul qilish kabi ilgari surilgan tashabbuslar yaqin kelajakda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini rag‘batlantiradi. Chunki kichik sanoat zonalari boshqa hududlarda mavjud bo‘lmagan imkoniyatlar, imtiyozlar va infratuzilmaviy afzalliklarga ega bo‘ladi.

Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritish sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash va mahsulotlarni sotishga ko‘maklashish, investitsiyalar jalb qilinishini faollashtirishni nazarda tutuvchi ushbu tashabbus kichik sanoat zonalari hududida ishlab chiqarish hajmini yuqori darajaga ko‘tarish imkonini beradi.

Yashirin iqtisodiyotga barham berish maqsadida sohada nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi **davlat inspeksiyalarining faoliyatini yanada takomillashtirish hamda jamoatchilikning raqamli iqtisodiyot borasidagi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish** choralarini tizimli yo‘lga qo‘yish ham partiyaning eng ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu tashabbuslar hayotga tatbiq etilsa, iqtisodiy samaradorlik oshadi, shaffoflik va ochiqlik ta’minlanadi, byurokratik to‘siqlarga barham beriladi.

QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH TARAFDORIMIZ

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi **qishloq xo‘jaligini jadal innovatsion rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ilmiy asosda tashkil etish, fan va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash** yaqin kelajakda O‘zbekistonning agrar sohadagi ulkan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda, kambag‘allik muammolarini hal etishda ijobiy natijalar beradi, deb hisoblaydi.

Buning uchun:

– oliy ta’lim tizimida qishloq xo‘jaligi sohasidagi kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha davlat buyurtmasi asosida o‘qishga qabul qilish kvotalarini oshirish;

– zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish, dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o‘qitish;

– qishloq xo‘jaligida tabiat injiqliklari, suv tanqisligi, yer sho‘rlanishi kabi xatarlar ortib borayotgani sababli agrar sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, eng avvalo, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish, jumladan, “Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish kabi bir qator samarali chora-tadbirlarni taklif qilamiz.

MUQOBIL ENERGIYADAN FOYDALANISH – DAVR TALABI

Partiyamiz uzoq yillardan buyon **muqobil energiya manbalari va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish** g‘oyasini ilgari surib kelmoqda. Partiya iqtisodiyotga yangi, energiya resurslarini tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, energiya tejamkorligiga erishish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaydi.

Xususan, kelgusi 5 yillikda mavjud energiya quvvatlarining kamida **30 foizini** muqobil energiya manbalari tashkil etishiga erishish, jahonning ilg‘or texnologiyalariga asoslangan holda milliy avtosanoatda elektr dvigatelli yengil avtomobillar, avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, 2030-yilga qadar ichki yonuv dvigatelli transport vositalarining kamida 30 foizini ekologik toza transport vositalariga almashtirish masalalarini hayotga tatbiq qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, partiya dasturidagi barcha yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi iqtisodiy yo‘nalishda ham ilgari surilgan ilg‘or g‘oya va tashabbuslarning hayotga samarali tatbiq etilishi kelgusi besh yillikda aholiga qulayliklar yaratish bilan bir qatorda mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojini ham ta’minlaydi.

Adolat bor joyda hayot barqaror, taraqqiyot bardavom!

Maqsud QURBONBOYEV,
Gulnoraxon ABDUVOHIDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar.

«ADOLAT» SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI VA NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Har bir qo‘ng‘iroq muhim

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Soat 10:00. Shu vaqtgacha “102” raqamiga 272 ta qo‘ng‘iroq bo‘lgan. Agar dispetcherlar band bo‘lib, fuqaro qo‘ng‘iroq qilib tusha olmasa, ulardan birortasi bo‘shashi bilan tizimning o‘zi fuqaroga avtomatik tarzda qayta qo‘ng‘iroq qiladi.

— Go‘shak ko‘tarilgach, dispetcher uni o‘z tashabbusi bilan o‘chirishi mumkin emas, - deydi xizmat kichik mutaxassisi, kichik serjant Ahmad Daminov. – Ba’zan bolalar ota-onasining telefonini o‘ynab, bexosdan “102”ga terib yuboradi. Go‘shakning narigi tomonida hech kim gapirmasa ham nizom bo‘yicha undan kelayotgan shovqinlarni eshitib, vaziyatni aniqlashga harakat qilamiz. Ko‘p hollarda murojaatchi qayta qilingan qo‘ng‘iroqni ko‘tarmaydi, shu bois bizda holatga to‘g‘ri baho berish va aniq ma’lumotlarni olish uchun bir yo ikki daqiqa vaqt bo‘ladi, xolos.

Tizimda muammolar ham yo‘q emas. Asosiylaridan biri maqsadsiz qilingan qo‘ng‘iroqlardir. Yosh bolalarning adashishini tushunish mumkin, biroq katta yoshlilarning ermakka yoki atay, mutaxassislar vaqtnini o‘g‘irlash uchun qiladigan harakatlarini tushunish qiyin. Buni kasb qilgan doimiy “murojaatchi”lar ham bor ekan.

— Bir fuqaro mashinasi o‘g‘irlanganligi haqida xabar berdi, - deydi Ahmad Daminov. – Voqea joyiga tezkor guruh yetib borganda murojaatchi spirtli ichimlik iste’mol qilganligi, uning otasi atay o‘g‘li mast holatda mashina haydamasligi uchun transportni yashirib qo‘yganligi aniq bo‘ldi. Eng qizig‘i, murojaatchining o‘zi ham buni bilgan. Faoliyatimizda shunga o‘xshash holatlar uchrab turadi.

Ma’lumotga ko‘ra, har oltinchi qo‘ng‘iroq maqsadsiz yoki yolg‘on murojaat asosida bo‘ladi. Albatta, qonunchiligimizda yolg‘on axborot berganlik uchun jazo chorasi belgilangan. Biroq jarayonda yo‘qotilgan qimmatli vaqtni qaytarib bo‘lmaydi.

Yana bir muammo - qo‘ng‘iroq qiluvchining manzilini aniqlash imkoni yo‘qligida. Bunda dispetcher murojaatchidan uning yoki u xabar bergan qonunbuzarlik sodir etilgan joyni so‘rashi kerak. Agar fuqaro noto‘g‘ri manzilni bersa yoki umuman manzilni aytmasa, yana vaqt yo‘qotiladi.

Ayni kamchiliklar “112” yagona dispetcherlik xizmati orqali bartaraf etilishi belgilangan. Oybek Tilyavovning ta’kidlashicha, ayni vaqtda viloyatimizda ham yagona xizmat faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Agar u faoliyatini boshlasa, tizim qo‘ng‘iroq egasining biometrik ma’lumotlari va joylashgan joyi haqidagi ma’lumotlarni avtomatik ravishda shakllantiradi. Shuningdek, u ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar, sog‘liqni saqlash vazirliklari, ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda “Hududgazta’minot” AJning shoshilinch xizmatlari faoliyatini umumlashtirib, respublikaning barcha hududi bo‘yicha aholiga shoshilinch yordam ko‘rsatish faoliyatini boshqarishni ta’minlaydi.

Asqar BAROTOV.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Raximkulov Maxamadkulga (2002-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Rofeyev Mirboboga (1988-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasida marhum Boboyev Meli Muradullayevichga (1999-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Azizjon Ro‘ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Shamsiyeva Malikaga (2010-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Rustamova Azizega (2023-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo‘l ko‘chasi, 9-“B” uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Shukurov Tolib Vaxobovichga (2023-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Alizade Mamed Yunisovichga (2015-yil 6-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Xalilov Irgashga (2017-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Abdullayeva Mayram Xalimovnaga (2023-yil 17-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Kudratov Shakir Karamidinovichga (2024-yil 4-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 3-uy, 35-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Kariyev Nurmamedga (2018-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Ergashov (Ergashev) Raximjon Yuldashyevichga (2001-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.

***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Murtazayeva Valentina Nikolayevnaga (2023-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Shamsiyeva Nodira Kamarovnaga (2024-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Oqdaryo tumanidagi “QURUVCHI-BINOKOR TURKISTON” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 206806283) burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Raxmonov Mashrab Muxammadjonovichning haydovchilik guvohnomasi (AC 080686, 2012-yil 23-mayda berilgan) Urgut tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99897-912-08-06.

* * *

Fuqaro Suyarov Ma’rufjon Abdug‘ani o‘g‘lining haydovchilik guvohnomasi (AA 0198755, 2018-yil 13-martda berilgan) Urgut tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99899-660-10-11.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 676 nusxada chop etildi. Buyurtma 558. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: F.RO‘ZIBOYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda